


ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 4, Issue 7 **2026**

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

4 JILD, 7 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 4, HOMEP 7

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 4, ISSUE 7



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№7 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2026-7>

Бош муҳаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Matyakubov Umidjon Raximovich
(i.f.d., prof.)

Бош муҳаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
(PhD., dots.)

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent

Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),

dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor

Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Grodno davlat universiteti Belorusiya

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'g'li

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Boltayev Abdurahim Amanovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Zoirov Erkin Xalilovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Buxoro davlat texnika universiteti

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun
Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации
основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением
№ 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: X. Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

TARIX

- 1. Mo‘minjon Salayev Atabayevich**
BAQTRIYA HUJJATLARIDAGI TURKIY ISMLAR VA ULARNING TARIXIY TALQINI.....7
- 2. Tilovboyeva Mardona Aybekovna**
O‘RTA OSIYODA TOSH DAVRINING ILK BOSQICHI XUSUSIYATLARI.....19
- 3. Акрамова Ф.А.**
СОЦИАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА В ОТНОШЕНИИ ЖЕНЩИН-РАБОТНИЦ ЛЁГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ (1946-1960 ГГ.).....22
- 4. Файзуллаев Мансур Хайруллаевич**
СПЕЦИАЛИЗАЦИЯ КАРАКУЛЕВОДСТВА В ЖИВОТНОВОДЧЕСКИХ КОМПЛЕКСАХ ЮЖНОГО УЗБЕКИСТАНА И ЕЁ СИСТЕМНЫЕ ПРОБЛЕМЫ (1960-1980 ГГ.).....30
- 5. Berdiyev Abduvali Abdug‘aniyevich**
QO‘NG‘IOTLAR SULOLASI DAVRIDA XIVA XONLIGINING TASHQI SIYOSIY ALOQALARI: SHAKLLANISHI, YO‘NALISHLARI VA TARIXIY AHAMIYATI.....37
- 6. Berdiyev Abduvali Abdug‘aniyevich**
XVIII-XIX ASRLARDA XIVA XONLIGINING ERON VA ROSSIYA BILAN DIPLOMATIK VA IJTIMOY-SIYOSIY MUNOSABATLARI.....47
- 7. Matniyozov Sarvarbek Sanatbek o‘g‘li**
“XORAZM OKRUGIDA YIRIK MEHNATSIZ XO‘JALIKLARNI TUGATISH TO‘G‘RISIDA”GI DEKRETNING TAHLILI.....56
- 8. Kenjayev Hasan Atanazarovich**
XV-XVI ASRLARDA SAROY KUTUBXONASINI BOSHQARISH AMALIYOTI: “BADOYE’ UL-VAQOE” ASARIDAGI MANSHUR MISOLIDA.....64
- 9. Қадамбаев III.**
ЎРТА ЗАРАФШОНДА ТОШ ДАВРИ ТУРАР-ЖОЙЛАРИНИ ЎРГАНИЛИШ ТАРИХИ.....70
- 10. Matkarimova Nazokat Maksudovna, Matnazarova Dilorom Radjabbaevna**
XORAZMLIKLARNING AN‘ANAVIY MADANIYATIDA OILA VA OILAVIY ETIKET.....73

IQTISOD

- 1. Radjabova Mavluda Ergash Qizi**
MINTAQADA QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARINING EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISH XORIJ MAMLAKATLARI TAJRIBASI VA O‘ZBEKISTON SHAROITIDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI.....77
- 2. Хусаинов Джахонгир Баходирович, Мухаммадсолиев Миродилжон Мирзохид угли**
КАСКАДНО-ЦИКЛИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ЦЕНООБРАЗОВАНИЯ И УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМ РИСКОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПРОГРАММ ВЫСШЕГО УЧЕБНОГО ЗАВЕДЕНИЯ.....84

3. Matyakubov Umidjon Raximovich, Qodirova Dilfuza Sodiqjon qizi, Kodirova Feruza Sodiqjonovna	
TURIZM XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING OBYEKTIV ZARURLIGI VA AHAMIYATI: STATISTIK TAHLIL VA KONSEPTUAL MODEL ASOSIDA.....	89

FILOLOGIYA

1. Adizova Surayyo Abduxoligovna	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KOGNITIV TERMINOLOGIYANING SHAKLLANISH TAMOIYILLARI (TIBBIY TERMINLAR MISOLIDA).....	97
2. Shoymardanova Dilfuza Baxtiyorovna	
ERKIN VOHIDOV ASARLARIDA SINTAKTIK PARALLELIZM VA POETIK INDIVIDUALLIK.....	103
3. Khudoyshekur Makhmudov	
TOURISM DISCOURSE AS AN OBJECT OF LINGUISTIC RESEARCH: A COMPARATIVE LINGUISTICS PERSPECTIVE.....	107

PEDAGOGIKA

1. Sh.E.Yakubova	
“OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABA QIZLAR IJTIMOIIY FAOLLIGINI KOMPETENTLIK ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI”..	112
2. Kalandarova Madina Baxadirovna	
IJTIMOIIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING TUG'RUQDAN KEYINGI DAVRDAGI AYOLLAR HAYOT SIFATI BILAN BOG'LIQLIGI.....	116
3. Kasimova Xulkar Atabayevna	
NOGIRON FARZANDLI TURLI YOSHDAGI ONALARNING PSIXOLOGIK FAROVONLIGI VA EMOTSIONAL O'ZINI-O'ZI NAZORAT QILISH O'RTASIDAGI KORRELYATSION BOG'LANISHLAR.....	120
4. Абибуллаев Арсен Редванович	
ОСОБЕННОСТИ ВОССТАНОВИТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕДУР СЕМИБОРОК В СТРУКТУРЕ ТРЕНИРОВОЧНОГО И СОРЕВНОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА.....	124
5. Шарипова Мадина	
ОРГАНИЗАЦИОННО-УПРАВЛЕНЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ АДАПТАЦИИ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА ДУАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ К СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	129
6. Pulatova Zulfiya Abduazizovna	
OLIIY HARBIY TA'LIM DA KURSANTLARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI BAHOLASH METODIKASINI HKT-INDEKSI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	136
7. Xasanboyev Javohir	
O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA JADID PEDAGOGIKASIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	145

Matkarimova Nazokat Maksudovna

Mamun universiteti Tarix kafedrası professori,

tarix fanidan falsafa doktori PhD., dotsent.

e-mail: ms.mnm.79@mail.ru

Matnazarova Dilorom Radjabbaevna

Ma'mun universitetida mustaqil izlanuvchisi

**XORAZMLIKLARNING AN'ANAVIY MADANIYATIDA
OILA VA OILAVIY ETIKET**<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21980040>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Xorazm vohasida shakllangan oila modeli, oilaviy etiket me'yorlari, ularning tarixiy ildizlari va zamonaviy holati tahlil qilinadi. An'anaviy oilaviy madaniyatdagi etik tamoyillar, o'dob-axloq me'yorlari, avlodlararo muloqot, to'y-marosimlardagi odatlar va ularning jamiyatdagi o'rni kompleks yondashuv asosida yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy davrda oilaviy qadriyatlarning o'zgarishiga sabab bo'layotgan omillar ham tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Xorazm, oila, etiket, qadriyat, axloq, urf-odat, transformatsiya.

Аннотация. В данной статье анализируется модель семьи, сформировавшаяся в Хорезмском оазисе, нормы семейного этикета, их исторические корни и современное состояние. На основе комплексного подхода рассматриваются этические принципы традиционной семейной культуры, нормы этикета, межпоколенческая коммуникация, обычаи свадеб и церемоний, а также их роль в обществе. Также анализируются факторы, вызывающие изменения семейных ценностей в современную эпоху.

Ключевые слова: Хорезм, семья, этикет, ценности, мораль, традиция, трансформация.

Abstract. This article analyzes the family model formed in the Khorezm oasis, family etiquette norms, their historical roots and modern state. Ethical principles in traditional family culture, norms of etiquette, intergenerational communication, customs at weddings and ceremonies, and their role in society are covered based on a comprehensive approach. The factors causing changes in family values in the modern era are also analyzed.

Keywords: Khorezm, family, etiquette, value, morality, tradition, transformation.

Kirish va dolzarbligi. Oila jamiyatning eng qadimiy va muhim ijtimoiy institutlaridan biri bo'lib, nafaqat shaxsiy hayotning asosi, balki milliy madaniyat, urf-odatlar va axloqiy me'yorlarning ham uzviy qismidir. Xorazm vohasida shakllangan an'anaviy oilaviy tuzum va oilaviy etiket me'yorlari bu hudud xalqining ijtimoiy-madaniy hayotini aks ettiruvchi boy tarixiy qatlamlarni tashkil etadi. Xorazm vohasida oila tushunchasi nafaqat jinsiy, qon-qarindoshlik munosabatlari, balki madaniy, urf-odat va axloqiy qadriyatlar asosida shakllanib kelgan. Bu hududda oila jamiyatning tayanch hujayrasi sifatida milliy o'zlikni saqlash, ijtimoiy tartibni

barqarorlashtirish va madaniy merosni uzatishda hal qiluvchi rol o'ynagan. Maqolada oila va oilaviy etiket masalalari Xorazm vohasi misolida tarixiylik va zamonaviylik doirasida tahlil qilinadi.

Metodlar va o'rganilish darajasi. Mazkur maqolada tadqiqot tarixiy-etnografik, etnologik, antropologik hamda qiyosiy-tarixiy yondashuvlar asosida amalga oshirildi. Tadqiqotda tizimli tahlil, tarixiylik va xolislik, etnomadaniy tahlil, strukturaviy-funksional, qiyosiy-tipologik hamda tavsifiy usullardan foydalanildi. Oila va oilaviy etiketning shakllanishi, rivojlanishi va transformatsiyasi jamiyatning ijtimoiy-madaniy taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq hodisa sifatida tahlil qilindi. Shuningdek, oilaviy munosabatlar va etiket me'yorlarining etnomadaniy xususiyatlarini ochib berishda etnologiya, ijtimoiy antropologiya, sotsiologiya va pedagogika fanlarining nazariy qarashlari kompleks ravishda qo'llanildi.

Oila va oilaviy etiket masalalari Sharq mutafakkirlari tomonidan qadimdan axloqiy, ma'naviy va tarbiyaviy nuqtayi nazardan yoritilgan. Xususan, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Kaykovusning "Qobusnoma", Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Abu Ali ibn Sinoning "Tadbir al-manzil", Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" hamda Qur'oni karim va hadislar to'plamlarida oiladagi o'zaro hurmat, ota-ona va farzand munosabatlari, mehmondo'stlik, odob-axloq va oilaviy mas'uliyat masalalari keng yoritilgan. Ushbu manbalar o'zbek xalqining oilaviy etiketi shakllanishining tarixiy-ma'naviy asoslarini belgilovchi muhim yozma manbalar hisoblanadi.

Oila va oilaviy munosabatlarning zamonaviy ilmiy tahliliga XX asr boshlarida Abdurauf Fitrat muhim hissa qo'shgan. Uning "Oila yoki oila boshqarish tartiblari" asarida oilani jamiyatning asosiy ijtimoiy instituti sifatida boshqarish, er-xotin munosabatlari, ota-onaning farzand oldidagi mas'uliyati, oiladagi axloqiy me'yorlar hamda tarbiya masalalari ilmiy va ma'rifiy jihatdan yoritilgan. Mazkur asar o'zbek oilashunosligining dastlabki nazariy manbalaridan biri sifatida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Etnografik va antropologik tadqiqotlarda oila, nikoh va qarindoshlik tizimining tarixiy rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilgan. S. P. Tolstovning Xorazm vohasiga bag'ishlangan tadqiqotlarida qadimgi Xorazm aholisining turmush tarzi, qarindoshlik munosabatlari, oilaviy urf-odatlar hamda maishiy madaniyatiga oid muhim etnografik ma'lumotlar keltirilgan. S. A. Tokarev, Yu. V. Bromley va K. Shoniyozovlarning ilmiy ishlari esa etnos, qarindoshlik, nikoh institutlari va oilaning etnomadaniy taraqqiyotdagi o'rnini tahlil qilishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Mustaqillik yillarida oila va oilaviy qadriyatlarni o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar sezilarli darajada kengaydi. O'. Musurmonova, O. Hasanboyeva, M. Qurinov, N. Egamberdiyeva, F. Saidnazarova va boshqa olimlarning ilmiy ishlari oilaviy tarbiya, ma'naviy qadriyatlar, oiladagi muloqot madaniyati, ota-onalik mas'uliyati hamda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalalarini pedagogik va ijtimoiy nuqtayi nazardan yoritishga xizmat qilgan. Ularning tadqiqotlari o'zbek oilasi taraqqiyotining zamonaviy tendensiyalarini baholashda muhim nazariy manba vazifasini bajaradi.

Jahon antropologiyasida mazkur mavzuning nazariy asoslari Claude Levi-Strauss, Bronisław Malinowski, George Peter Murdock, Jack Goody, Alan P. Merriam, Emile Durkgeym, Talcott Parsons hamda William J. Goode kabi olimlarning tadqiqotlarida ishlab chiqilgan. Claude Levi-Strauss qarindoshlik tizimini ijtimoiy tuzilmaning asosiy elementi sifatida izohlasa, Bronisław Malinowski oilani inson ehtiyojlarini qondiruvchi universal ijtimoiy institut sifatida baholaydi. George Peter Murdock oilaning jamiyatdagi universal funksiyalarini ilmiy asoslagan bo'lsa, Jack Goody nikoh va oilaning tarixiy evolyutsiyasini iqtisodiy hamda madaniy omillar bilan bog'liq holda tahlil qilgan. Talcott Parsons oilani shaxsning ijtimoiylashuvi va jamiyat barqarorligini ta'minlovchi asosiy institut sifatida tavsiflaydi. Alan P. Merriam esa musiqa antropologiyasi doirasida oilaviy marosimlar va an'analarning madaniy mazmunini ochib beradi.

So'nggi yillarda O'zbekiston olimlari tomonidan oiladagi muloqot madaniyati, oilaviy qadriyatlar, etnik an'analar va oilaviy marosimlarga bag'ishlangan qator ilmiy maqolalar e'lon qilinib, mazkur mavzuning ayrim jihatlari yoritilgan. Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyatida oila

va oilaviy etiket masalalari umumiy pedagogik yoki sotsiologik nuqtayi nazardan tahlil qilingan bo'lib, ularning etnologik va tarixiy-antropologik mazmuni, shuningdek, hududiy xususiyatlari yetarli darajada kompleks tadqiq etilmagan. Ayniqsa, o'zbek xalqining, jumladan, Xorazm vohasi aholisining oilaviy etiket tizimi, uning tarixiy shakllanishi, marosimiy-amaliy ko'rinishlari, zamonaviy transformatsiyasi va etnomadaniy xususiyatlarini kompleks etnologik yondashuv asosida o'rganish ilmiy dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Shu jihatdan mazkur tadqiqot tarixiy manbalar, etnografik materiallar, antropologik nazariyalar va zamonaviy ilmiy ishlarga tayangan holda oila va oilaviy etiketning shakllanishi, rivojlanishi hamda bugungi kundagi etnomadaniy xususiyatlarini kompleks tahlil qilishga qaratilgan.

Tadqiqot natijalari. Tarixiy manbalarda Xorazmda patriarxal oilaviy tuzilma ustuvor bo'lgani, ya'ni oilani ota yoki boboning boshqarishi keng tarqalganini ko'rish mumkin. Bu tizimda barchaning ijtimoiy roli qat'iy belgilangan: erkaklar – oilaning moddiy va ijtimoiy himoyachisi, ayollar esa – tarbiya, axloqiy nazorat va oilaviy uyushqoqlikni ta'minlovchi subyekt sifatida namoyon bo'lgan. Bu haqda etnolog G.P.Snesarevning asarlaridan bilib olishimiz mumkin. Shu bois Xorazm oilasida ota-onaning so'zi qonun darajasida baholangan, yoshlar esa itoatkorlik, kamtarlik va hurmat tamoyillari asosida tarbiyalangan. Xorazmda oila qadimdan ijtimoiy tartibotning asosi sifatida qaralgan. Oila – tarbiya, iqtisodiy birlashuv, avlodlar davomiyligi va madaniy meros uzluksizligining tayanchi bo'lgan [1, 65]. Oila axloqiy, huquqiy, iqtisodiy va tarbiyaviy jihatdan barqaror institut bo'lib xizmat qilgan.

Farzand tarbiyasi, mehnatga o'rgatish, milliy qadriyatlarni singdirish kabi funksiyalar aynan oila orqali amalga oshirilgan. Har bir a'zoning oiladagi roli aniq belgilangan: ota – tayanch, ona – tarbiyachi, bobo-buvilar – axloqiy mezon va tajriba manbai sifatida faoliyat yuritgan. Oila faqatgina farzand tarbiyasi uchun emas, balki iqtisodiy hayotning muhim subyekti sifatida ham faoliyat ko'rsatgan. Xususan, Xorazmda bog'dorchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq ishlari ko'pincha oilaviy mehnat asosida tashkil etilgan. Har bir a'zo oilaviy ijtimoiy hayotda ma'lum bir funktsiyani bajargan [2, 71]. Bunday uyushqoqlik an'anasi, ayniqsa, ko'pchilik oilalarda bugungi kungacha saqlanib qolgan.

Shuningdek, oila ijtimoiy nazoratning eng samarali mexanizmlaridan biri sifatida ham shakllangan. Jamoa tomonidan nazorat ostida bo'lgan har bir oila o'zining obro'sini, nomini saqlashga harakat qilgan. Bu jihat, oila institutining nafaqat maishiy, balki madaniy va axloqiy kuch sifatida ham faol ishlashiga olib kelgan [3, 69]. Shunday qilib, Xorazmda oila – nafaqat qon-qarindoshlik asosidagi birlik, balki madaniy identitetni, urf-odatlarini, axloqiy qadriyatlarni va ijtimoiy tartibni saqlab qoluvchi ko'p funktsiyali institut sifatida shakllangan.

Xorazm oilasi o'z ichida qadriyatlar tizimining asosiy uzatuvchisidir. Avlodlar o'rtasidagi aloqalar, yoshga va maqomga ko'ra muloqot madaniyati, “ota o'rnida ota” prinsipiga asoslangan ijtimoiy tuzilma milliy etiketning shakllanishiga zamin yaratgan [4, 62]. Oila ichki kommunikatsiya, axloqiy tarbiya, mehnat bo'linishi, qarindoshlik rishtalari asosida jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash vositasi sifatida faoliyat yuritgan [3, 74]. Oila ichidagi muloqotda doimiy ravishda hurmat, sadoqat va kamtarlik me'yorlari saqlangan. Ota-onaga itoat, qarindosh-urug' bilan aloqalar, mehmondorchilik – bularning barchasi oila doirasida shakllangan va jamiyatga ko'chgan [3, 78].

Kelin tushirish, nikoh, mehmondorchilik — bularning barchasi o'ziga xos etiket tizimiga ega. Har bir kishining o'рни va vazifasi oldindan belgilangan: toychi, oqsoqol, to'yxona egasi kabi rollar xalq xotirasida muhim ahamiyat kasb etgan [5, 40-41]. Xorazm vohasida oila ijtimoiy-madaniy institut sifatida shakllanishida xalq og'zaki ijodi, diniy e'tiqodlar va qadimiy urf-odatlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Xorazm folklorida, xususan, maqol, doston va laparlar orqali oilaviy qadriyatlar madh etilgan [6, 48]. Ular orqali oilaning shaxsni tarbiyalovchi, qadriyatlar uzluksizligini ta'minlovchi institut sifatidagi o'рни mustahkamlanadi.

So'nggi yillarda jamiyatda texnologik taraqqiyot, axborot oqimi, migratsiya va urbanizatsiya natijasida an'anaviy oila modeli muayyan o'zgarishlarga uchramoqda. Yoshlar orasida avlodlararo muloqot susaymoqda, hurmat-izzatning mazmuni o'zgarib, ko'plab odobiy me'yorlar eskilik deb baholanmoqda [7, 32]. Biroq, jamiyatda hali ham qadimiy etiket unsurlari saqlanmoqda. Xususan,

Xorazmda hozirgi kungacha “ota o‘rnida ota” tamoyili, kattalarga salom berish, mehmon kutish marosimlarida qadimiy tartiblar davom etmoqda [8, 64]. Bu xalqning o‘z madaniy ildizlariga sadoqatini, etnik merosni zamonaviy hayotga moslashtirish qobiliyatini ko‘rsatadi.

Xulosa. Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib aytish mumkinki, Xorazmda oila institut sifatida nafaqat reproduktiv va tarbiyaviy funksiyalarni, balki madaniy identitetni saqlash, axloqiy me‘yorlarni mustahkamlash va jamiyatda barqarorlikni ta‘minlash funksiyalarini ham muvaffaqiyatli bajargan. Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, xorazmliklarning an‘anaviy madaniyatida oila va oilaviy etiket tizimi o‘zbek milliy madaniyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oila orqali jamiyatga uzatilayotgan qadriyatlar, axloqiy me‘yorlar va urf-odatlar, zamon ta‘siriga qaramay, o‘z mohiyatini yo‘qotmayapti. Shuningdek, zamonaviy hayotda bu an‘analarni saqlab qolish va rivojlantirish uchun ilmiy asoslangan yondashuv zarur. Shu jihatdan, oila va etiket masalalari faqat etnografik emas, balki sotsiologik, madaniyatshunoslik va pedagogik ahamiyatga ega muhim yo‘nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезмы. — М.: Наука, 1969.
2. Тошбаева Т.Х., Савуров М.Д. Новое и традиционное в быту сельской семьи узбеков. — Т.: Наука, 1989.
3. Арифханова З.Х. «Семейная обрядность Узбеков Ташкента» // Среднеазиатский этнографический сборник. — М., 2006.
4. Shoniyoov K. O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni. — T.: Fan, 2001
5. Лобачева Н.П. “Свадебный обряд хорезмских узбеков” // Краткие сообщения, 1960.
6. Sattor M. O‘zbek udumlari. — Toshkent: Cho‘lpon, 2007.
7. Задикина К.Л. Узбеки дельты Аму-Дарьи. — М.: АН СССР, 1952.
8. Hamroqulova B.M. O‘rta Osiyo oilaviy marosimlari. — T.: TDIU, 2002.

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

Maqolani tayorlashda qo'yiladigan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 6 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatarga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 6 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новой текст начинается со следующей строки, и статья состоит из 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиатства. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должен быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 6 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].